

YANGI O‘ZBEKISTONNI RIVOJLANISHIDA MODERNIZATSIYA VA TRANSFORMATSIYA TUSHUNCHALARINING MOHIYATI

Buriyev M.R.

F.f.b.f.d. (PhD)

Toshkent kimyo texnologiya instituti.

“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrasining

katta o‘qituvchisi

e-mail: mansurboriyev826@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi kunda jamiyatimizdagi rivojlanish, yangilanish va modernizatsiya jarayonlarining bosq ichma-boshqich amalga oshirilayotganligi, bu o‘z navbatida davlatlarning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilm-fan, madaniyat va boshqa bir qator sohalarida barqaror rivojlanishning ro‘y berayotganani haqida so‘z boradi. Shuningdek, modernizatsiya va transformatsiya tushunchalarining mazmun-mohiyatiga alohida e‘tibor qaratilib, mahalliy va chet el olimlarining tushunchalarga bergan ta‘riflariga nisbatan munosabat va fikrlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘z. *Modernizatsiya, metamodernizatsiya, jamiyat yangilanishi, ijtimoiy transformatsiya, industriallashuv, postindustriallashuv, texnologik yangiliklar.*

ABSTRACT

The article discusses the fact that today the processes of development, renewal and modernization in our society are being carried out step by step, which in turn leads to sustainable development in the economic, political, social, scientific, cultural and a number of other spheres of the state. Also, special attention is paid to the essence of the concepts of modernization and transformation, and the attitudes and opinions of domestic and foreign scientists regarding the definitions of the concepts are given.

Keywords. *Modernization, metamodernization, social renewal, social transformation, industrialization, postindustrialization, technological innovations.*

KIRISH

Insoniyat tarixida yuz bergan tendensiyalardan shuni ko‘rish mumkinki, jamiyatda rivojlanish, yangilanish va modernizatsiya jarayoni bosqichma-boshqich amalga oshirilgan davlatlarda iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalariga barqaror rivojlanish ro‘y bergan. Bu Amerika Qo‘shma Shtatlari tarixida kuzatilgan, ya‘ni 1787-yilda qabul qilingan AQSH Konstitutsiyasining poydevori 1619-yilda AQSHning Jemystaun shahrida Umumiy majlis tuzilishi bilan

boshlangan. Bu davrda AQSh Angliya Qirolligining mustamlakasi va koloniyasi bo'lgan. Ingiliz faylusufi Jon Lokk tomonidan 1663-yilda ishlab chiqilgan Karolina mustamlakasida Angliya manfaatlarini himoya qiluvchi “Karolinaning asosiy nizomlari” [1] nomli hujjat ham AQSH jamiyatni shakllanishida va modernizatsiya qilishning ibtidosi bo'lib xizmat qildi.

Bugungi kunda modernizatsiyaning ilmiy talqinlari turlicha va xilma-xildir. Sharq va G'arb davlatlarning tuzilmalarida, siyosiy institutlarni qarashlari va munosabatlari turlicha. Shundan kelib chiqib, professor B.Omonov tomonidan “modernizatsiya (an'anaviy) jamiyatni industrlashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumni transformasiyalash tushunilib, bu jarayonda davlat taraqqiyoti ijtimoiy-iqtisodiy konsepsiyasini qayta ko'rib chiqish, inson huquq-erkinliklarini yangi norma, standartlar asosida ta'minlash, shaxs jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar tizimini yangicha, zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish ko'zda tutiladi” [6] - deb ta'rif bergan.

Ma'lumki, jamiyatni modernizatsiyalashuvi bu - an'anaviy jamiyatdan yoki hayot tarzidan zamonaviy jamiyatga o'tishdir. Bunda dunyo rivojlanishi, globallashuv ta'siridan tashqari, jamiyat ichida ham zamonaviy jamiyatga o'tish uchun davlat xohish istagi va jamiyat manfaatdor bo'lishi kerak. Ayrim davrlarda jamiyat yangilanishi va texnologik yangiliklarga qarshiliklar ham bo'lgan. Ya'ni Angliyada 1733-yilda “Uchar moki” dastgoxini ixtiro etilishi. Sanoat inqilobiga yaqqol misoldir va boshqa texnik mexanikalarni ixtiro qilinishi zadagonlar siyosiy, iqtisodiy zarar ko'radi. Hokimiyatdan masovo bo'lish xavfi, yer egaligan tushadigan daromatni keskin kamayishi, qo'l mehnati orqali kun ko'radigan hunarmandlarni texnologiya raqobati dosh bera olmaganligi sabab XVIII asrdagi jamiyat yangilanishiga keskin qarshilik ko'rsatadi. Lekin bu modernizatsiyani qo'llab-quvatlangini uchun Angliya o'z davrida iqtisodiy va siyosiy jihatdan qudratli davlatga aylandi. Aksincha bunga qarshilik qilgan mutloq monarxiya va zodagonlar hokimiyati kuchli bo'lgan Avstriya-Vengiriya va Chor Rossiyasi imperiyasi XIX-XX asrlarda rivojlanishdan orqada qoldi. Iqtisodiy va siyosiy turg'unlik sabab bu imperiyalar davr sinovlariga bardosh berolmay inqirozga yuz tutdi. Bu sanoatlashuvga va buning natijasida jamiyat yangilanishiga A.Robinson va D.Ajemo'g'li “Mamlakatlar tanazzuli sabablari: qudrat, farovonlik va kambag'allik manbalari” asarida “bunyodkor buzg'unchilik” deb ta'rif beradi.

O'zbekiston o'z mustaqillikka erishgach davlat va jamiyatni yangilishlash maqsadida tub isloxotlar olib bordi. Ya'ni modernizatsiya jarayoniga O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov “innovatsion texnologiyalarni joriy etish va jahon bozorida talab mavjud bo'lgan yangi turdagi tovarlar ishlab

chiqarish...” [15] ni amalga oshirish jarayonlari bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlab o‘tgan. Buni O‘zbekistonning Yevropa, Osiyo va boshqa qit‘alardagi mamlakatlar bilan iqtisodiy-siyosi va ilm-fan sohlaridagi a’loqalarini, hamkorliklarida ko‘rishimiz mumkin.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Modernizatsiya jarayoni amaliyotda qo‘llanilishi XVIII asr Ga‘rbiy Yevropaga boshlangan, ya’ni texnika va ilm-fan ixtirolarni yaratilishi, dunyoviy ilmlarni keng qo‘llanishi, muxandislik va texnik bilimlarni real hayotda amaliy foydalanish natijasi yuzga kelgan bo‘lsa, IX asrda boshlangan islom sivilizatsiyasi va IX-XII, XIV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo allamolari tomonidan diniy, dunyoviy, ijtimoiy, madaniy bilimlarni rivojlantirilishi, ilmiy intellektualni yuksak darajaga yetishi natijasida modernizatsiyaning nazariy ko‘rinishi va uning mukammallashuvi ham ta’sir ko‘rsatdi.

O‘rta asrlar musulmon sharqining faylasufi, ensiklopedik olim va matematik Abu Nasr Farobiy (870-951) “Fozil odamlar shahri” asarida adolatli hukmdor, farovon jamiyat va davlat boshqaruviga e’tibor qaratadi. “Haqiqiy baxtga erishish maqsadida o‘zaro yordam qiluvchi kishilarni birlashtirgan shahar - fazilatli shahardir, baxtga erishish maqsadida birlashgan kishilar jamoasi - fazilatli jamoadir” [2]. Farobiy davlat va jamiyat farovonligi rivojlanishi jamoaviy harakatda ekanligiga e’tibor qaratib, jamoaviy harakning asosi o‘zoro ishonch va madaniyat degan fikrni ilgari suradi. “Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo‘ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-barobar bo‘ladi, kishilar o‘rtasida farq bo‘lmaydi, har kim o‘z istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma’nosi bilan ozod bo‘ladilar. Biri ikkinchisiga xo‘jayin bo‘lmaydi” [3]. Ma’lumki, o‘rta asrlarda davlat va jamiyat taraqqiyotiga g‘ov bo‘luvchi ko‘plab omillar sabab bo‘lgan. Bular jamiyatning salmoqli qismi savodsizlik ekanligi, ayrim insonlarning erkinligi, ozodligi, huquqlari va kasb-hunar tanlash huquqlari chegaraganligidir. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri” asari orqali yuqoridagi illatlarni bartaraf etish orqali jamiyat yangilanish nazariyasi ilgari suradi.

Farobiy fuqarolar hayotini farovon qilishni asosiy sababchisi hukmdor ekanligiga urg‘u beradi. “Fozil odamlar shahri” asarida, “fuqarolar bilan muloqot usullari va ularga ta’sir o‘tkazish yo‘llari sodda va tushunarli bo‘lmog‘i lozim. Aks holda odamlar hukmdorni tushunmaydilar yoki uning talabini bajarolmaydilar. Hukmdorlar dorini bemorning sevimli va ko‘p tanovul qiladigan taomiga qo‘shib

ichiradigan mahoratli tabibga o'xshamoqlari lozim. Zero, mehru muhabbat va rag'batlantirishlar fuqarolar bilan muomalaning eng asosiy usulidir" [19].

Ma'lumki, Farobiy yuqorida fikrlarni o'rta asrlar talabiga moslab yuritgan, ya'ni davrlar farovonligi va jamiyatdagi adolatni ta'minlashni asosi hukmdor shaxsiyatiga bog'lagan. XXI asrda demokratik respublika davlatlarda rivojlanish va taraqqiyot davlat va jamiyat hamkorligida olib boriladi. Bu fikrlarning zamonaviy shaklda talqini 2016-yil 28-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4904-sonli farmoni bilan "Xalq qabulxonasi" tashkil etilishi ko'rinishida, ko'rishimiz mumkin. Xalq qabulxonasi vazifasi fuqarolar bilan xukumat o'rtasida muloqat o'rnatishdir. Bugungi kunda bu o'z natijasini ko'rsatdi va jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bartaraf etib kelmoqda.

Ma'lumki jamiyatni yangilash yoki undagi muammolarni bartaraf etish hamda yechimi topish bugungi davrda faqat davlatni vazifasi emas, bunda jamiyat a'zolari ham faol bo'lishi kerak. Davlat tomonidan olib borilayotgan isloxlarda xalq ham o'z fikri, qarashlari bilan ishtirok etishi zarur. "Yolg'izlik halokatga olib keladi. Zero, inson o'ziga kerakli narsalarni faqat jamiyat yordamida qo'lga kiritishi mumkin" [20]. Farobiyning yuqoridagi fikrlari XXI asrda fuqarolik jamiyatini qurishda o'z isbotoni topmoqda. Yana bir musulmon Sharqining davlat arboblardan biri Nizomulmuluk (1018-1092) "Siyosatnoma yoki Siyar ui-muluk" asarida "Podshoh hafta ikki kun zulm ko'rganlarni qabul qilib, zolimlarning dodini berib, jazolab va rayiyat so'zlarini bevosita eshitib borishi kerak. Muhim bo'lgan arizalarni qabul qilib, har biriga javob berishi lozim. Agarda, "podshoh dodxohlarni oldiga chaqirib, haftada ikki marotaba ularning sozlarini eshitadi va zolimlarning jazosini beradi", degan xabarlar tarqalsa, unda zolimlar qilmishlarining oqibatini o'ylab, qo'rqib bedodlik qilmaydilar" [17]. Nizomulmulukning bu fikrlarida hukmdorning adolati va xalq bilan bevosita muloqati orqali jamiyatdagi muommolar bartaraf etiladi. Bu o'z navbatida jamiyatni yangilanishiga sababchi bo'lishini nazariy jihatdan isbotlashga harakat qiladi.

Sohibqiron Amir Temur (1336-1405) "Rayiyat ahvolidan ogoh bo'ldim. Ulug'larini ota qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim" [4]. Davlat boshqaruvida har doim ogoh bo'lish bilan birgalikda hukmdor "saltanat ishlarida har kimning so'zini eshitsin, har kimdan fikr olsin. Qaysi biri foydaliroq bo'lsa, uni ko'ngil xazinasida saqlab, ishlatsin" [5] – deb. Saltanat boshqaruvida adolat mezoni saqlash uchun ko'p fikrlikka e'tibor qaratish lozimligin aytib o'tgan. Ma'lumki, Amir

Temur o'z tuzuklarini amalda qo'lash orqali davlat taraqqiyoti va jamiyat yangilanishiga erishgan.

O'rta asr sharq allomalarining adolatli davlat va jamiyat qurishni, uni boshqarish va rivojlantirish haqidagi fikr, hamda g'oyalaridan ilhomlangan yangi davr Yevropa klassik olimlari jamiyatni yangilash haqidagi fikrlari bilan hamohangdir.

Jamiyat yangilanishi, taraqqiyotining asosi sifatida markazlashgan davlat va kuchli adolatli hukmdor g'oyasini Farobiy va Nizomulmuluk fikrlariga yaqin fikr yuritgan N.Makiavellidir. Florensiyalik tarixchi va davlat arbobi N.Makiavelli (1469-1527) davlat xizmatchisi, Yevropa davlatlarida elchi lavozimida faoliyat ko'rsatgan. N.Makiavelli amaliy faoliyati davomida jamiyatni nazorat qiluvchi kuchli va markazlashgan davlat ifodachisi edi. N.Makiavellining 1513-yilda yozilgan "Hukmdor" asari buni yaqqol dalildir. "Xalq saylagan hukmdor esa davlatni yakka o'zi boshqaradi, uning atrofida unga bo'ysunishni istamaydigan hech kim yoki deyarli hech kim bo'lmaydi [18]. XVI asrda Italiya feodal tarqoqlik va ichki urushlarda zarar ko'rayotgan davlat edi. Shu sababdan N.Makiavelli markazlashgan davlat va kuchli hukmdor nazariyasini, hamda o'z davrining siyosiy talablarini ilgari suradi.

Modernizatsiyaning amaliy hayotga kirib kelishi, XVIII asrda Yevropa davlatlarida ilmiy, texnologik yangiliklarning nazariyadan real hayotga tadbiiq etilishi. Modernizatsiyaning yangi tarixini boshlab berdi. Modernizatsiya atamasi ilmiy tamoyilga kiritilishi XX asrning 50-60 yillarida T.Parson, R.Merton AQSH oliy ta'limiga olib kirdi. Modernizatsiya nazariyasining rivojlanish tarixi uch bosqichli yo'lni bosib o'tgan, dastlab 1950-1960 yillar, ikkinchi bosqich 1960-1970 yillar, uchinchi bosqich 1980-1990 yillarni o'z ichiga oldi. Modernizatsiya nazariyasining g'oyalari M.Veber, F.Tennis va E.Dyurkgeyn kabi g'arb olimlarining fikrlari sababli paydo bo'ldi.

Nemis sotsiologi F.Tennis (1855-1936) o'zing "Ijtimoiy birlik va jamiyat" asarida. "Ijtimoiy birlikning prototipi oila ekani, qon-qarindoshlik va oilaviy rishtalar – mana shu birlikning haqiqiy tayanchi" [12] - deb fikr yuritadi. Jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy birlik munosabatlari samimiylilik, do'stonalik, mehmondo'stlik kabilar asosida qurilishi, yangi turli xil birliklarga (gil'diyalar, kasb va itelektual uyushmalar, diniy uyushmalar, siyosiy partiyalar) jamlanuvchi indivitlar o'rtasidagi munosabatlar do'stlik aloqasi bilan bog'lanish e'tirof etadi.

Ma'lumki, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida quldorlik tuzimi (1861-yil Rossiya imperiyasi, 1865-yil AQSh) tugatilishi, eski feodal jamiyatni yangi ijtimoiy tenglik g'oyasini ilgari surgan yangi jamiyatga aylanishini va uning rivojlanishini sotsiolog F.Tennis ijtimoiy birlikka bog'laydi. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda

ayollarni erkaklar bilan teng huquqli bo'lishi, ayollarning "erkaklar dunyosiga tushib qolishi, emansipasiya jarayoni tufayli ayollar "qat'iyroq, ma'rifatliroq, ongliroq, hisobdorroq" [13] bo'lib boradi. Bu an'anaviy jamiyatdan industrial jamiyatga o'tishda osonlik bilan korxona va turli xil ishlab chiqarish sohalarida osonlik bilan ishchi kuchi bo'lishi mumkinligini asos qilib ko'rsatadi. Ayollarni erkaklar bilan teng ishchi kuchiga aylanishi ijobiy tomoni ayollar jamiyatning teng huquqli a'zosiga aylanishi (G'arbiy Yevropa, AQSH, ...), huquqiy, siyosiy erkinlikka olib keldi. Salbiy tomoni jismonan og'ir bo'lgan mehnatlarga jalb qilinishi, erkak bilan teng ravishda ishlashga, ommaviy majburiy mehnatga (XX asrda Sobiq SSSR, Fashizm Germaniyasi, sobiq kommunistik Sharqiy Yevropa) jalb qilinishi ayollar va yosh avlod salomatligiga salbiy ta'sir etdi.

Fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeym (1858-1917) jamiyatni tadrijiy rivojlanishini umumiylikda va birdamlikda deb hisoblaydi. "Jamiyat o'zini va uning atrofidagi dunyoni qanday ifodalashini tushunish uchun alohida shaxslarning tabiatini emas, balki jamiyatning tabiatini hisobga olish kerak. U o'zini o'ylaydigan belgilar uning kimligiga qarab o'zgaradi" [10]. Dyurkgeym jamiyatni tabiatiga e'tibor qaratarkan, avvalo jamiyatda mehnat taqsimotiga qarshi chiqadi. Mehnat taqsimoti jamiyat a'zolarining bir-biriga qaramligini kuchaytiradi. Bunda umumiylikdan individuallashuvga va ixtisoslashuvga olib keladi degan g'oyani ilgari suradi. "Biz ko'rdik, - deydi u, - ijtimoiy evolyutsiya kichik, oddiy agregatlardan boshlanadi; bu agregatlarning ba'zilarining birlashishi natijasida kattaroq agregatlarga o'tishi va birlashgandan so'ng bu guruhlar o'ziga o'xshash boshqalar bilan birlashib, yana kattaroq agregatlarni hosil qiladi. Shuning uchun bizning tasnifimiz birinchi tartibli, ya'ni eng oddiy jamiyatlardan boshlanishi kerak" [11]. Jamiyatni modernizatsiyalashuvi yakkalikdan-ko'plikka, oddiydan murakkabga qarab o'tishi deb biladi.

Xulosa shuki, Dyurkgeym yuqoridagi tamoyilni hayotga tatbiq etish uchun oddiy jamiyat deganda nimani anglatishini aniq belgilashdan boshlash kerak bo'ladi. Ma'lumot o'rnida shuni aytish kerakki, o'z davrida (XIX asr oxiri-XX asr boshi) Dyurkgeym Fransiya jamiyatini kasallangan va birdamlik zaiflashgan deb hisoblaydi. Jamiyatni oddiyligi va soddaligi, bu ijtimoiy hodisalarga buyumga qaraganday qarash, mehnat taqsimotini barham berib, jamiyatni insoniylashtirish kerakligini ta'kidlaydi.

Nemis sotsiologi Maks Veber (1864-1920) Modernizatsiya nazariyasi asoschilaridan biri hisoblanadi. Garvard sotsiologlari Veber g'oyalari orqali modernizatsiya paradigmasini ishlab chiqqan. Jamiyatni yangilashda "ideal tiplar" haqida utopik, mavhum va ijtimoiy hodisa sifatida g'oyalarini ilgari surdi.

Shuningdek, jamiyat haqida bilimlari va qarashlarini qadriyatlar tushunchalari orqali yoritib beradi.

Modernizatsiya nazariyasining g'oyalari M.Veber, F.Tennis va E.Dyurkgeyn g'oyalari va asarlari orqali ilmiy asoslanish orqali yoritilgan. Modernizatsiyaning siyosiy g'oyalari va qarashlari XX asrning 60-yillarida D.Pauell, G.Almond, D.Apter, S. Lipsed, I.Paynin va D.Rastounlarning nashr etilgan asarlari orqali yoritib berilgan.

XX asrning 60-yillaridagi modernizatsiyaning nazariy qarashlari 80-yillarda rivojlanishning funksiyalari sifatida qaraldi. "... modernizatsiyalash nazariyasi qayta ko'rib chiqilib, u rivojlanishning sharti emas, balki funuksiyasi sifatida qaraldi. Unda ko'proq ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tuzilmalarni o'zgartirish ustuvor maqsad deb qabul qilindi" [7].

SH.Eyzenshtadt tomonidan modernizatsiyaga quyidagicha ta'rif beradi. "Modernizatsiya bu an'anaviy agrar jamiyatdan zamonaviy industrial va undan keyin postindustrial jamiyatga o'tishdir". Shuni ham inobatga olish keraki, har doim ham jamiyat yangilanishi hokimiyat tarafidan qo'llab-quvvatlanmagan. Sababi nisbatan turg'un va an'anaviy jamiyatlar davlat hokimiyatiga muammo tug'dirmagan. "Davlat hokimiyati an'analar va qadriyatlarga tayangan. Ammo an'analar va qadriyatlaning zaiflashuvi (stientizatsiya va modernizatsiya oqibatida) bilan hokimiyatning bu turi zaiflashadi" [14]. Buni XVIII-XIX asrlarda mavjud bo'lgan Markaziy Osiyo xonliklarida va XIX asr boshlarida Rossiya imperiyasida kuzatishimiz mumkin.

Jadallashgan modelga o'tishni XX asrning 90-yillaridan Yaponiya, Janubiy Korea, Malayziya va Singapur kabi davlatlarda yuz berdi. Bunda jamiyatning an'analari, milliyligini va qadriyatlarining ayrim ko'rinishlarini saqlab qolib zamonaviy davlatni barpo etishdi. Yuqoridagi Janubiy-sharqiy Osiyo va "Osiyo yo'lbarlari" davlatlarining modernizatsiyalashuvi amalda isbotlanishi hamda davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi, siyosiy barqarorligi butun dunyo tomonidan e'tirof etildi.

Jamiyatning rivojlanishi modernizatsiyaning oddiy bosqichdan mukammal yangi bosqichiga o'tishiga sababchi bo'ldi. XX asr 60-yillardagi modernizatsiya, 90-yillarda postmodernizatsiya bosqichiga o'tdi. XXI asrda postmodernizatsiya bir qismi sifatida metamodernizatsiya atamasi paydo bo'ldi. Bugungi kunda jamiyatning ongiga va fikrlashiga ta'sir ko'rsatuvchi internet va televideniya (modernizatsiyalash jarayonoda media sohasidan foydalanish) siyosat, madiatning hazil bilan aralashmasi natijasida metamodernizatsiyaning paydo bo'lishiga sababchi sifatida ko'rilmogda. Masalan, siyosatni tasvirlashda sobiq AQSH prezidenti Donald Trampning faoliyatini metamodernist sifatidagi ko'rishimiz mumkin. Hamda turli xil ijtimoiy tarmoqlardagi (Telegram, Instagram, Tik-tok)

metomodernizatsiyaning salbiy ko‘rinishlarini targ‘ib etmoqda. Ommaviy madaniyatni targ‘ib qilish, turli xil axloqsiz va boshqa rasm hamda video roliklar orqali o‘tib kelayotgan yoshlarni tarbiyasiga jiddiy ta’sir etmoqda. Yoshlar (asosan 14-20 yoshdagilar) buni bugungi zamonning madaniyati, etika va estetikasi deb qabul qilmoqda. Bu o‘z navbatida jamiyatni yangilashda xalqimizning milliy ongiga chuqur singib zarar yetkazmoqda. Metamodernizatsiyada ijtimoiy tarmoqlardan jamiyat yangilashda ijobiy manba sifatida foydalanish ham mumkin. Ma’lumki, bugungi kunda xalqimizning asosiy qatlami (voyaga yetgan barcha yoshdagi insonlar) kundalik ishlarida, kasbiy va ilmiy faoliyatida internet va ijtimoiy tarmoqlardan axborot olish va axborot uzatish maqsadida foydalanadi. Shu sababdan mentalitetimizda kechayotgan transformatsion jarayonda, ijtimoiy tarmoqlar foydalanish etikasi va madaniyatini shakllantirish kerak. Bunda boshlangi’ch ta’limdan dars sifatida ijtimoiy tarmoqlar va internetdan foydalanishning to’g’ri yo’llarini o’rgatish zarur.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib modernizatsiyani quyidagi bosqichlarga bo’lish mumkin. Birinchidan, o’rta qatlam shaklladi va an’anaviy jamiyatda transformatsiya jarayonlari yuz bera boshlaydi. Ikkinchidan, Jamiyatda kommunikatsiya urbanizatsiya va innovatsiyani tarqatish jarayoni tezlashadi [8]. Uchunchidan, yuqoridagi jarayonlarning bardavom va izchil davom etishidan postmodernizatsiya va uni ayrim elementlarini o’zida mujassam etgan metamodernizatsiya vujudga keladi.

Shuningdek, jamiyatining modernizatsiyalashuv jarayonini shakllanishida, bir qator omillarni hisobga olish zarurdir. Bular huquqiy va iqtisodiy omillar hamda axloqiy-ma’naviy omillar. Modernizatsiya huquqiy va iqtisodiy sohalarida ijobiy hodisa hisoblanadi. Ammo, jamiyatning axloqiy qarashlarida, ma’naviyatida, milliy qadriyatlarida, urf-odat va an’analarida buzilish sodir bo’lishi mumkin. Bunga misol 1941-yilda Eron hukmdorlik tahtiga o’tirgan Muhammad Rizo bir yoqlama Yevropa modernizatsiyasini jamiyat hayotiga olib kirishi o’zini aks ta’sirini ko’rsatdi. Bu jamiyat tomonidan “radikal g’arblashtirish” deb qabul qilindi, bunda xalqning milliy ongi, mentalitetiga, qadriyatlariga e’tibor qaratmadi. Buning oqibatida 1979-yilda davlat to’ntarishi bo’lib xalq tomonidan hokimiyat vakillari almashtirildi. Sharq davlatlarida an’anaviy jamiyatdan zamonaviy jamiyatga o’tishda, qadriyatlar va milliylik kabi omillarni hisobga olish va ular bilan ehtiyorkorana munosabatda bo’lish kerak. Yuqoridagi omillarni hisobga olib zamonaviy jamiyat qurgan Sharq davlatlari (Yaponiya, Janubiy Korea, Malayziya, Singapur,...) bugungi kunda rivojlanganlar davlatlar qatoridan joy olgan.

Ma'lumki, jamiyatda modernizatsiya jarayoni kechayotgan bir vaqtda ijtimoiy hayotning transformatsiyalashuvi ham yuz beradi. Professor B.Omonov modernizatsiya jarayonidagi transformatsiyaga shunday ta'rif beradi, "transformatsiya-tizimning o'zini saqlash, qayta ishlab chiqarish jarayoni. Unda beqaror tizim boshqa megatizimga o'tadi yoki ichki tuzilmasini o'zgartiradi. Transformatsiya-ijtimoiy tizimning immanent umumiy sifat xususiyati bo'lib, tizim bir strukturaviy tuzilmadan nisbatan rivojlangan, beqaror tizimga almashadi" [9]. Umumiy ta'rif berilsa transformatsiya so'zining lug'aviy tarjimai "o'zgarish", ya'ni "bir turdan boshqa turga o'tish" ma'nosida tushuniladi. Transformatsiya jarayoni faqat jamiyatda yuz beradigan tizimli hodisa emas, iqtisodiyot, tibbiyot, genetika, (bakteriya hujayrasiga begona DNKning kirib borishi natijasida uning irsiy xususiyatlarining o'zgarishi) botanika, (evolyutsiya jarayonida ba'zi turlarning boshqa turlarga o'tishi) sport, (shaxmatda bir turdagi ustunlikning boshqasiga o'tishi) san'at va madaniyat sohalarida ham mavjud.

Ijtimoiy transformatsiya yuqoridagi sohalardan farqi jamiyat a'zolarining ongidagi o'zgarishdir. Ijtimoiy transformatsiya jamiyatning barcha jabhasini qayta qurishni va o'zgarishini anglatadi, madaniy hayotdan ijtimoiy munosabatlarga, siyosatdan iqtisodiyotgacha, jamiyatning fikrlash tarzimizdan yashash tarzimizgacha qamrab oladi. Lekin insoniyat tarixining aksariyat qismida o'zgarishlar tezligi juda sekin yuz bergan, mentalitetda hamda shu kabi ijtimoiy ruhiy qarashlarida aks etgan. Bunda hayot kechirish sharoitlarida jiddiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmaydi, bu bir necha avlodlar almashuvi va davomida sezilmasligi mumkin.

Dunyo hamjamiyatdagi ijtimoiy transformatsion jarayonlari XX asrning 50 - yillardan boshlab jamiyat hayotida tub tarkibiy o'zgarishlarni tavsiflash, shuningdek (tor ma'noda) ijtimoiy tarixiy o'zgarishlar jarayonini ifodalash uchun qo'llanilgan umum ijtimoiy tushunchadir.

Ijtimoiy transformatsiyani yangi bosqichi XX asr 80-yillarning oxirida Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarida hamda XX-asrning 90-yillarning boshida sobiq SSSRdan mustaqil bo'lgan yangi va yosh davlatlarda sodir bo'ldi.

Bunda eski jamiyat qarashlari ma'naviy jihatdan zamon talablariga javob bermay qoladi. Yangi jamiyatni tashkil etishni sifat jihatdan yangi holat o'tishni boshlaydi, bunda tabiiy muhit bilan muvozanatsiz va bir tekis bo'lmagan munosabat jarayonlarning ulushi asosida va uning natijasida amalga oshadi.

Jamiyatdagi transformatsiya jarayoni ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'liq holda amalga oshib, ularning jamlanmasi ma'lum bir zamonda va makonda, aniq bir tizim uchun belgilangan chegaradan oshib o'tib, yahlit tizimni tizimli va barqarorlik yangilanishi rivojlanishi sodir bo'ladi. Shuningdek, keyingi rivojlanish bosqichini

qaysi yo'nalishda sodir bo'lishini oldindan aytib bo'lmaydi. Faqat tizimni keyingi bosqichi tartibsiz harakatda bo'ladimi yoki tizim yanada mukammalashib tartibli holatda yuqori darajaga o'tadimi ijtimoiy transformatsiya faraz qiladi.

Bunda tarixning muhim unsurlarini inkor etish yoki salbiy deb baholab ularni yengish, yangi reja va g'oyalarni ilgari surish, aniq harakat rejasini tuzib shu orqali harakat qilish yo'llari va vositalarini belgilash orqali, jamiyatdagi transformatsion jarayonlar bir necha bosqichlardan o'tadi:

-jamiyatdagi bugungu kundagi mavjud holatini ijtimoiy inqiroz sifatida baholash;

-yuqoridagi inqirozni ijtimoiy (falsafiy, sotsiologik) tahlil qilish, hamda inqirozdan chiqirish imkoniyatlarining yo'llarini va shartlarini xolisona (irratsional va hokimiyatga xushomat yo'li bilan emas) tavsiflash;

-jamiyatning ma'nan eskirgan qisimlarini qayta qurish va isloh e'tish, uning ijtimoiy taraqqiyotga mos kelmaydigan, dunyo sivilizatsiyasiga va uning tendentsiyalariga mos kelmaydigan qismlaridan voz kechish.

ADABIYOTLAR / REFERENCES

1. A.Robinson and D.Ajemoglu (2021) "Causes of Country Decline: Sources of Power, Prosperity, and Poverty."- T.: "Nihol" publishing house, p 47
2. A.N.Forobiy (1993). "The city of noble people". T.: A.Qodiriy, p 198.
3. A.N.Forobiy (1993) "City of noble people". T.: A.Qodiriy, p 200.
4. Amir Temur International Foundation (2001) Wills, advice, reprimands of Amir Temur. – T.: G. Gulom, p 15.
5. A.Temur (2020) Temur Tezuklari. - T.: Ilm-ziyo-zakovat, p 89.
6. B.Omonov (2019) Monograph "Conceptual bases of modernization of society".- T.: Aloqachi, p 7
7. B.Omonov (2019) Monograph "Conceptual bases of modernization of society".- T.: Aloqachi, p 7
8. B.Omonov (2019) Monograph "Conceptual bases of modernization of society".- T.: Aloqachi, p 15
9. B.Omonov (2019) Monograph "Conceptual bases of modernization of society".- T.: Aloqachi, p 19
10. Emile Durkheim (2018). Les regles de la methode sociologique. classiques.uqac, p 26
11. Emile Durkheim (2018). Les regles de la methode sociologique. classiques.uqac, p 101
12. G.Skirkbekk. N.Gil'e (2002) History of Philosophy. T.: Sharq, p 596.

13. G.Skirbekk. N.Gil'e (2002) History of Philosophy. T.: Sharq, p 597.
14. G.Skirbekk. N.Gil'e (2002) History of Philosophy. T.: Sharq, p 613
15. Karimov I.A (2009) Consistent continuation of modernization and renewal of our country - the need of the hour // "People's Word", February 14.
16. Muxaev R.T (2011) Political science. -M.: Prospekt, p 492.